

MAHALLIY KARTOSHKKA NAVLARINI OZIQ ELEMENTLARGA BO'LGAN MUNOSABATI

G'aybullayeva Mohinabonu Xayrullayevna

Murodjonova Husnida Sirojjidin qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda mahalliy kartoshka navlarini oziq elementlarga bo'lgan munosabatini o'rganish bilan bir qatorda 20 %i N, P, K ning qolgan yillik me'yorida solinishi, kartoshka xosilini belgilaydigan asosiy elementlaridan biri tupdagi poyalar soni ekanligi hamda urug'chiligi bayon etilgan.

Kalit so'z: oziq, ma'daniy, urug, nav, o'g'it, metamarfoz, umid, tuproq.

Annotation. In this article, along with the study of the relationship of local potato varieties to nutrients, it is stated that 20% of N, P, K should be applied in the remaining annual rate, and that one of the main elements that determine the potato yield is the number of stems on the bush and the seed yield.

Keywords: food, cultural, seed, variety, fertilizer, metamorphosis, hope, soil.

Аннотация. В данной статье, наряду с изучением отношения местных сортов картофеля к питательным веществам, указано, что в оставшуюся годовую норму следует вносить 20 % N, P, K, а один из основных элементов, определяющих содержание картофеля урожайность – количество стеблей на кусте и выход семян.

Ключевые слова: питание, культура, семена, сорт, удобрение, метаморфоза, надежда, почва.

Kirish. Kartoshka tomatdoshlar oilasiga (Solanaceae) mansub bo'lib Solanum avlodini tashkil etadi. Bu avlod 200 dan ziyod yovvoyi, yarimyovvoyi va madaniy turlarni o'z ichiga olib, shundan faqat bitta Solanum tuberosum L. madaniy holda keng ekiladi. Biz kartoshka o'simligini tugunaklaridan ko'paytirib sevib iste'mol qilamiz. Mevasi- rezavor, ikki uyali, ko'p urug'li, sariq-yashil rangli. Urug'i mayda, yassi, sariq rangda bo'lib, 1000 dona urug' vazni 0,5 gram.

Tuganak- shakli o'zgargan (metamorfozlashgan) poyadir. Chunki yer ostki poyaning yon kurtaklaridan rivojlangan oq poya(stolon) uchida oziq moddalarning kengayishidan hosil bo'ladi. Stolonning tugunakka birikkan joyi “kindik” deyiladi. Kartoshka qorong'uda saqlanganda ko'karib uzun, mo'rt, oq yoki xira rangli o'simtalar, yorug' joyda saqlanganda esa yo'g'on kalta, to'q yashil va boshqa rangdagi o'simtalar hosil qiladi. Kartoshka tuproqdagi oziq elementlargatalabchan o'simlik. Bu uning biologik xususiyatlari, ko'p miqdorda biomassa to'plashi va nisbatan ildiz

sistemasining kuchsiz rivojlanganligi bilan bog'liq. O'rtacha har 100 sentner (10 tonna) kartoshka hosili o'zi bilan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliy olib chiqadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Kartoshka yumshoq tuproq ekini, chunki uning tugunagi yer ostida shakllanadi. Shuning uchun u tuproqning havo rejimiga yuqori talabchan. Kartoshka tuproqdagi oziq elementlarga talabchan o'simlik. Bu uning biologik xususiyatlari, ko'p miqdorda biomassa to'plashi va nisbatan ildiz sistemasining kuchsiz rivojlanganligi bilan bog'liq. O'rtacha xar 100 sentner (10 tonna) kartoshka hosili o'zi bilan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliyni olib chiqib ketadi. Oziq elementlarni yerdan olish bo'yicha kartoshka lavlagi va ba'zi texnik hamda sabzavot ekinlarni hisobga olmaganda ko'pchilik ekinlardan ustun turadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston respublikasi davlat reystriga kartoshkaning 100 dan ortiq navlari kiritilgan. Jumladan quvonch, red skarlet, gala, santé, romano, kondor, pikasso, marfona, sarnav, piskom, serhosil, umid, saviola, silvana, arizona, arnova, kabi navlari keng maydonlarda ekilmoqda.

Tadqiqotnatijalari. Oziq elementlarning tuproqda yetishmasligi yoki ortiqcha miqdorda bo'lishi o'simlikning vegetativ va reproduktiv organlarining nisbatiga, mahsuldorligi, kasallik, noqulay sharoitlarga, aynishga chidamligi, hosildorlik, tuganak biokimyoviy tarkibi, saqlanuvchanligi va urug'lik sifatiga nihoyatda katta ta'sir etadi. Agar oziq elementlari tarkibida N,P,K ning jumladan makro va mikroelementlarning miqdori kam bolsa biz ko'zda tutilgan hosilni ololmasligimiz ayon boldi.

Muhokama. Oziqlantirish. Ertapishar kartoshka o'sish davrida ikki marta oziqlantiriladi. Birinchi marta (ko'karib chiqqanda) birinchi ishlov bilan qo'lda yoki kultivator- oziqlantirgichlar yordamida 200-250 kg ammoniy selitrasi yoki mochevina hamda 100-110 kg ammofos bilan oziqlantiriladi. Ikkinchi oziqlantirish to'la shonalashda 220-350 kg ammoniy selitrasi yoki mochevina solish bilano'tkaziladi.

Ertapishar kartoshkani parvarish qilishda, qator orasini ishlashda, ularni oziqlantirishdamaxsus minitexnika va qurollardan – kultivator- oziqlantirgichlardan foydalaniladi.

Kartoshkaning o'sishi, yuqori va sifatli hosil berishini belgilovchi omillardan biri hududning iqlimi (harorat, yog'ingarchilik, namlik, quyosh nurining tushish darajasi, yorug' kun uzunligi) va tuproq sharoitlaridir (tuproq tuzilishi, unumdorligi, pH darajasi, sho'rlanganligi va boshqalar).

Xulosa. Kartoshka sho'r erlarda yaxshi o'smaydi, ayniqsa, xlorli sho'rlanish o'simlikka yomon ta'sir ko'rsatadi. Akademik V.I. Zuev ta'kidlashicha, tuproq tarkibidagi xlor 0,015- 0,020% dan oshsa, hosildorlik sezilarli kamayib, 0,05-0,07% bo'lsa, o'simlikda tuganaklar deyarli hosil bo'lmaydi. SHuning uchun bunday sho'rlangan erlarda kartoshka o'stirishdanoldin tegishli meliorativ tadbirlar o'tkazilishi shart.

Kartoshka ekini tuproq eritmasining kuchsiz kislotali ($rN=5-6$) bo'lishini xohlaydi. Lekin, neytral va kuchsiz ishqoriy tuproqlarda yaxshi o'sib, yuqori hosil beradi.

Kartoshka hosildorligi ko'p jihatdan uning tup qalinligiga bog'liq. Har gektar maydonda 57000 dan 71000 gacha ko'chat bo'lgani yoki $70 \times 20-25$ sm tartibda ya'ni, qator orasi 70sm tugunaklar orasi 20-25 sm qilib ekilgani maqsadga muvofiq. Buning uchun har gektarga 3-3,5 tonna urug'lik tugunaklar ekilishi, ekiladigan tugunaklarning vazni esa 30-80 gram bo'lishi lozim. Urug'lik tugunaklarni ekish oldi tayyorlash majmuasi navlar bo'yicha o'simliklarning unib chiqishini 5-6 kunga, o'suv davrini 3-6 kunga tezlashtirishi,

Yuqori assimilyasiya yuzasining (navlar bo'yicha nazoratdagi 41,5, 35,7 va 43,3 o'rniga 44,8, 38,7 va 45,5 mingm²/ ga) shakllanishini, hosil to'plash dinamikasini jadallashtirishi, viruslar bilan zararlanishini 7,1-8,3% ga kamayishi hisobiga hosildorlikning 10-18%, rentabellik darajasi 17,9-32,4% ga oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish to'g'risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.
2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo'jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik.Navro'z.- Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet
3. Ostonaqulov. O'zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro'z-Toshkent: 2020- 324 bet